

ADVOKATLAR MALAKA OSHIRISHI MOHIYATI VA UNING AHAMIYATI

To'ychiyeva Malika Botir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti,
Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va advokatura kafedrası o'qituvchisi
malikatuychiyeva97@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16271149>

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif tomonidan advokatura sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijasi mantiqiy izchillikda tahlil etiladi. Shu jumladan, mazkur islohotlar zahirida advokatlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish borasida davlat o'z oldiga qo'ygan vazifalar va ularning dolzarbligi yoritib beriladi. Bir qator olimlarning malaka oshirishning advokatlar professional faoliyatidagi ahamiyati xususidagi fikrlari tahlil qilinadi. Xorijiy davlatlarda advokatlar uchun malaka oshirishning majburiyati va ushbu mamlakatlarda o'rnatilgan talablar qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: advokatura, advokat, malaka oshirish, malaka oshirish zaruriyati.

Bugungi kunda, advokatura institutini takomillashtirish, advokatlarning kasbiy nufuzini oshirish va advokatlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga yangi bob qo'shilib, unda advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi, o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanishi, uning sha'ni, qadr-qimmatini va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'lishi va qonun bilan muhofaza qilinishi belgilandi[1].

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, advokatura faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish orqali advokatura sohasi tubdan yangilanib borayotgan bo'lib, bu orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatish yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son qarori[2] bilan, "Yuridik yordam" axborot tizimi ishlab chiqilib, unda advokatlarning shaxsiy kabineti, advokatlarning elektron reyestri, "elektron advokatlik orderi"ni olish va boshqa keng imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonida ham advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish maqsadida: advokatura institutini o'z-o'zini boshqarish tizimiga o'tkazish hamda uning davlat organlari va boshqa tuzilmalardan chinakam mustaqilligini ta'minlash; advokatlar malakasini oshirishning zamonaviy va xalqaro standartlarga mos keluvchi va muqobilik tamoyiliga asoslangan tizimini joriy etish; advokatlar sonini kamida 2000 nafarga ko'paytirish; fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy ishlar bo'yicha advokatlar hamda sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari o'rtasida elektron hujjatlar almashinuvi darajasini kamida 50 foizga yetkazish vazifalari belgilandi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda advokatlar malakasini oshirish tizimini isloh etish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida malaka oshirishdan ko'zlangan maqsad va uning advokat kasbiy faoliyatidagi ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

Yuridik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, zamonaviy advokat muntazam ravishda o'z

malakasini oshirib borishi, hattoki ikkinchi oliy ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu holat, asosan, advokatlarning tor sohalarga ixtisoslashuvi zarurati bilan bog'liq. Advokatura faoliyati sohasidagi o'zgarishlar natijasida advokatlar xorijiy tillar, xalqaro huquq hamda xorijiy davlatlarning ichki qonunchiligini o'rganishga kirishdilar. Shuningdek, qonunchilikdagi tezkor o'zgarishlar jarayonini ham inobatga olishga to'g'ri kelmoqda, chunki ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar ko'p marotaba o'zgartirilmoqda va to'ldirilmoqda[3].

Shu bilan birga, nazariy bilimlar bilan mustahkamlanmagan amaliy tajribaning o'zi professional tor doiralilikka olib keladi, xulq-atvorda andozaviylikni shakllantiradi hamda boshqa nojo'ya oqibatlarga sabab bo'ladi. Kasbiy darajani doimiy ravishda oshirish ustida ishlash, yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish esa professional mahoratga erishishning kafolati bo'lishi mumkin[4].

O.N.Kolokolova ta'kidlaydiki, vakil sifatida faoliyat yurituvchi advokat yetarli bilim va tajribaga ega bo'lishi kerak. Bu esa unga yuklatilgan vazifalarni malakali ravishda va ish mohiyatini chuqur tushungan holda hal etish imkonini beradi. U, shuningdek, ishonch bildirgan shaxsning aniq bir ish bo'yicha huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda o'zining rolini va o'rnini aniq tasavvur eta olishi, hamda kasbiy majburiyatlarini bajarishda protsessual va no-protsessual vosita, usul va choralarning keng arsenaliga ega bo'lishi lozim[5].

Malaka oshirish talabi aholi uchun malakali yuridik yordamni ta'minlashga qaratilgan xalqaro standartlar nuqtai nazaridan advokat maqomiga qo'yiladigan majburiy talab hisoblanadi. Shuning uchun, kasbiy birlashmalarning mustaqilligidan tashqari, xalqaro tashkilotlar ham qat'iy malaka talablarini va doimiy malaka oshirish zaruratini har qanday muvaffaqiyatli ishlaydigan adliya tizimining asosiy sharti sifatida ko'radilar[6].

Ko'plab Yevropa davlatlari, AQSh va Rossiyada advokatlik faoliyatida malaka oshirish majburiy hisoblanadi va bir-biridan yiliga talab qilinadigan soatiga ko'ra farq qiladi. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, Rossiyada besh yilda 100 soat yoki yiliga 20 soatdan, Bolgariyada yiliga 4 soat, Belgiyada – 16, Fransiyada – 20, Germaniyada – 10, Italiyada – 30, Norvegiyada – 16, AQShda esa shtatlarga ko'ra farq qilishi mumkin – 8 soat (Koliforniya)dan – 15 soat (Texas)gacha[7].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, malaka oshirish yuristlar, shu jumladan advokatlarning davlat va jamiyat oldida turgan o'z vazifalarini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonida belgilanganidek, advokatlar malakasini oshirishning zamonaviy va xalqaro standartlarga mos keluvchi va muqobillik tamoyiliga asoslangan tizimini joriy etish mamlakatimizda dolzarbdir. Bu shuni anglatadiki, advokatlarning o'z malakalarini oshirishga bo'lgan ishtiyoqlarining ortishi mazkur tizimni xalqaro standartlar asosida isloh etish bilan chambarchas bog'liqdir.

References:

Используемая Литература:

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son Available at: <https://lex.uz/docs/-6445145#-6446156>
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.05.2022-y., 07/22/263/0456-son Available at:

<https://lex.uz/docs/-6039334>

3. Стецовский Ю.И. Становление адвокатуры в России. – М.: Волтерс Клувер, 2010. – С. 448–449.
4. Лубшев Ю.Ф. Курс адвокатского права: Учебник. – 2-е изд. – М.: ООО «Профобразование», 2004. – С. 353.
5. Колоколова О.Н. Особенности деятельности адвоката - представителя в гражданском процессе // Налоги (газета). 2006. № 22.
6. Курманалиева А.А. Вопрос повышения профессиональной квалификации адвокатов в свете конституционного положения о доступе населения к квалифицированной юридической помощи. ОБРАЗОВАНИЕ И ПРАВО № 12 • 2018
7. ECCLE - European Center for Continuing Legal Education; Available at: <http://www.eccle.eu/european-center-for-continuing-legal-education/>